

Standartlashtirish to'g'risida yangi qonun qabul qilindi

“Standartlashtirish to'g'risida”gi Qonun (O‘RQ–800, 03.11.2022 y.) Prezident tomonidan imzolandi

Qonunga ko'ra, O'zbekistonning **milliy standartlashtirish tizimini** quyidagilar tashkil etadi:

Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi;

Standartlashtirish bo'yicha milliy organ;

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari;

standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitalar.

Standartlashtirishning asosiy vazifalaridan biri **fuqarolarning hayotini, sog'lig'ini va mol-mulkini** hamda **atrof-muhitni** muhofaza qilishdan iborat.

Standartlashtirish rejasi quyidagi **muddatli istiqbol** uchun qabul qilinishi mumkin:

qisqa (1 yilgacha);

o'rta (1 yildan 5 yilgacha);

uzoq (5 yildan 10 yilgacha).

Standartlarning yagona axborot bazasi Standartlashtirish bo'yicha milliy organ tomonidan shakllantiriladi va yuritiladi.

Standartlarning toifalari jumlasiga quyidagilar kiradi:

milliy standartlar;

xalqaro (*mintaqaviy*) standartlar;

xorijiy mamlakatlarning standartlari.

Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran 12 oy o'tgach kuchga kiradi.